

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

**2026-YIL**  
**IYUN/6-SON, IV-QISM**



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google  
Scholar

ISSN  
INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afarovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

EPOKSID-DIAN VA FENOLFORMALDEGID GIBRID BOG'LOVCHISI ASOSIDA YUQORI YEYILISH VA KORROZIYABARDOSH ANTIFRIKSION QOPLAMALAR YARATISH .....	10
<b>Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich</b>	
O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNI BOSHQARISH VA TARTIBGA SOLISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	16
<b>Mamayusupova Dilovarxon, Maxmudaliyeva Manzuraxon, Toyirjonov Shokirjon</b>	
FRANSUZ, RUS VA O'ZBEK TILLARI SPORT TURIZMI TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY TADQIQI.....	20
<b>Ma'rupova Gulnoz</b>	
МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОЦЕНКЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ХРАНЕНИЯ ПЛОДОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	24
<b>Muratov Abdulaziz Uktamovich</b>	
DIGITAL TRANSFORMATION AND EMERGING TRENDS IN INFORMATION TECHNOLOGY.....	29
<b>Daminova Barno, Esmurodova Zarnigor, Boltayev Javohir, Kuziboyeva Lobar</b>	
FRANSUZ, RUS VA O'ZBEK TILLARI SPORT TURIZMI TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI.....	34
<b>Ma'rupova Gulnoz Umarjonovna</b>	
MINTAQA IQTISODIY O'SISHIDA XIZMATLAR SOHASI TARKIBIY O'ZGARISHLARINING STATISTIK TAHLILI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA .....	38
<b>Raximov Alisher Ibragimovich</b>	
KREDIT SKORINGIDA XULQ-ATVOR OMILLARINI BAHOLASH: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY QO'LLANILISHI .....	45
<b>BekmurodovAbbos Amiriddinovich</b>	
ECONOMETRIC INVESTIGATION OF AGRICULTURAL PRODUCTION ACTIVITIES IN KARAKALPAKSTAN REPUBLIC.....	49
<b>Makhambetova Uringul Reimbaevna</b>	
GETEROKOMPOZIT POLIMER QOPLAMALAR SIRTINING SHAKLLANISHI VA ULARNING PAXTA TOLALARI SIFATIGA TA'SIRINI TADQIQ ETISH .....	55
<b>Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich</b>	
GRADIENT BOOSTING (XGBOOST) VA TEGISHLILIK FUNKSIYALARIGA TAYANGAN STATISTIK KLASSIFIKATSIYA USULINING SOLISHTIRMA BAHOLANISHI .....	62
<b>Ergasheva Ma'mura Gayratovna</b>	
QURILISH SOHASIDA KICHIK VA YIRIK BIZNES SUBYEKTLARI INTEGRATSIYASI SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	69
<b>Axmedova Nilufar Shuxratovna</b>	
LARAVEL PLATFORMASIDA NEYROTARMOQLARNI QO'LLASH ORQALI FOYDALANUVCHI XATTI-HARAKATLARINI BASHORAT QILISH VA TAVSIYA TIZIMLARINI YARATISH .....	74
<b>Jo'rayev To'xtasin, Abdusattarov Odiljon, Boymatov Mexrojiddin, Maxkamov A'zimjon, Nabijonov Abduqodir</b>	
BEHIND THE 30% TARGET: A CONCEPTUAL FRAMEWORK FOR WOMEN'S ACADEMIC LEADERSHIP IN UZBEK UNIVERSITIES .....	82
<b>Farida Nishanova</b>	
QURILISH SANOATIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH: NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR .....	87
<b>Abdullayev Axror Jaxbarovich</b>	
BALIQCILIKDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI.....	92
<b>Iskandar Yunusov</b>	



TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASHDAGI BANK KREDIT RISKLARINI PASAYTIRISH YO'LLARI.....	98
<b>Toymuxamedov Ibrohim Rixsiboyevich</b>	
KO'P KVARTIRALI UY-JOY FONDINI BOSHQARISHDA PROFESSIONAL XIZMAT KO'RSATISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEKANIZMLARI .....	108
<b>Rahimov Qodir Ergashevich</b>	
НИЗКОУГЛЕРОДНАЯ ЭНЕРГЕТИКА КАК НАПРАВЛЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ МОДЕРНИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА .....	115
<b>Расулкулов Жамшидбек Акрамкулович</b>	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNING MOHIYATI VA ULARNING PRINSIPLARI .....	124
<b>Ubaydullayev Muxammadjon, Akbarov Diyorbek</b>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MEHMONXONA XIZMATLARINI AVTOMATLASHTIRISHNING IQTISODIY AFZALLIKLARI.....	128
<b>Raxmonova Nigina Anvarovna</b>	
EMPLOYEE WELL-BEING IN POST-REFORM UZBEKISTAN: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW AND RESEARCH AGENDA .....	132
<b>Farida Nishanova</b>	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MEKANIZMLARI .....	137
<b>Inobatov Abror Boshlarovich</b>	
REAL SEKTORNING INSTITUTSIONAL TARKIBI VA TRANSFORMATSIYA TENDENSIYALARI.....	144
<b>Isroilova Muhabbat Rustamjon qizi</b>	
ОБЕСПЕЧЕНИЕ РОСТА ЭКОНОМИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРЕДПРИЯТИЯ (НА ПРИМЕРЕ ФИРМЕННЫХ МАГАЗИНОВ «SAG EXPRESS») .....	151
<b>Мусаева Шоира Азимовна</b>	
O'ZBEKISTONDA YALPI ICHKI MAHSULOT DINAMIKASINING ICHKI ISTE'MOLGA TA'SIRI .....	161
<b>Djumayev Zayniddin Axmedovich</b>	
O'ZBEKISTON TASHQI IQTISODIY FAOLIYATIDA KICHIK BIZNES O'RNINI OSHIRISHNING STATISTIK USULLARDAGI TAHLILI.....	166
<b>Yadgarova Nigora Rixsulla qizi</b>	
KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLARNI REAL VAQT REJIMIDA VIZUALIZATSIYA QILISH UCHUN ADAPTIVE M4 GEOMETRIK-PERSEPTUAL AGREGATSIYA ALGORITMI.....	170
<b>Nuraliyev Faxriddin, Hotamov Farhod, Muxamedjonova Zuxra</b>	
АЛГОРИТМ ОПТИМИЗАЦИИ ПРОПУСКНОЙ СПОСОБНОСТИ В РАЗВЕТВЛЁННЫХ ПАССИВНЫХ ОПТИЧЕСКИХ СЕТЯХ (PON).....	175
<b>Киямов Рахматулло Рузиевич</b>	
MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI ORQALI HUDUDLARNING INVESTITSION SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISH.....	180
<b>Xolmurotova Diyoraxon, Xoliyorova Shoxista</b>	
OZIQ-OVQAT XAVSIZLIGINI TA'MINLASHDA DAVLAT STRATEGIK ZAXIRALARINING O'RNINI .....	184
<b>Bazarov Nazirjon, Normurodov Alibek</b>	
O'ZBEKISTONDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA UNI BARTARAF ETISHDA TADBIRKORLIKNING ROLI: IQTISODIY TAHLIL VA TENDENSIYALAR.....	190
<b>Uzakov Sh. Sh.</b>	
MINTAQADA TABIIY KAPITALNI JAMG'ARISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	196
<b>Raximov Faxriddin Shavkatovich</b>	
СОВРЕМЕННЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ УГРОЗЫ ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ СТРАХОВЫХ КОМПАНИЙ И ПРИЧИНЫ ИХ ВОЗНИКНОВЕНИЯ .....	201
<b>Петр Ким</b>	



УЧЁТ ВЫБЫТИЯ ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ФИНАНСОВЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ ОРГАНИЗАЦИИ.....	207
<b>Туракулов Шахриёр, Пашаходжаева Дилдора</b> HUDUDIIY IQTISODIY O'SISH DRAYVERLARINI KO'P OMILLI REGRESSION TAHLIL ASOSIDA MIQDORIIY BAHOLASH (BUXORO VILOYATI TUMANLARI MISOLIDA).....	213
<b>Ergashev Sherali Erali o'g'li</b> NOAN'ANAVIY PUL-KREDIT SIYOSATI INSTRUMENTLARINING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA QISQA MUDDATLI TA'SIRINI EMPIRIK BAHOLASH .....	217
<b>Djumonov Dilshod Safaroliyevich</b> O'ZBEKISTONDA YALPI ICHKI MAHSULOT DINAMIKASINING ICHKI ISTE'MOLGA TA'SIRI .....	222
<b>Djumayev Zayniddin Axmedovich</b> JIZZAX VILOYATI KICHIK BIZNES TIZIMINING EMPIRIK MA'LUMOTLAR BAZASI VA TAVSIFIY STATISTIK TAHLILI .....	227
<b>Atamuratova Gulrux Muzafarovna</b> KIMYO SANOATI KORXONALARIDA DIVERSIFIKATSIYA SAMARADORLIGINI INTEGRAL BAHOLASH VA 2032-YILGACHA PROGNOZLASH.....	232
<b>Razikov Otabek Rustamovich</b> ИССЛЕДОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ РАЗВОЛКНЕНИЯ ПУТАНКИ .....	240
<b>Одилхонова Нафиса, Атаханов Авазбек</b> SOLIQ BOSHQARMALARIDA AGILE MENEJMENT TAMOYILLARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARINING EMPIRIK-STATISTIK TAHLILI .....	247
<b>Sayfiyev Jasur Ravshanovich</b> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT XARIDLARI TIZIMIDA RAQOBAT MUHITI VA SHAFFOFLIKNI TA'MINLASHNING MOLIYAVIY-IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	253
<b>Rizoqulova Elnora Otabek qizi</b> YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING MINTAQAVIY OMILLARI.....	260
<b>Ergashev Erkin Iroqovich</b> QULOQ CHANOG'I VA YUZ YON TASVIRI ASOSIDA SHAXSNI IDENTIFIKATSIYALASH.....	264
<b>Mamatov Narzillo, Samijonov Abdurashid, Abdullaeva Barno, Usarov Jurabek</b> ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ РОТОРНО-УПРАВЛЯЕМЫХ СИСТЕМ (РУС) И ВИНТОВЫХ ЗАБОЙНЫХ ДВИГАТЕЛЕЙ (ВЗД) ПРИ БУРЕНИИ НЕФТЯНЫХ И ГАЗОВЫХ .....	271
<b>Жахонгир Эркин угли Абдиганиев, Шерали Халлокович Умедов</b> KO'KRAK BEZI SARATONINING MOLEKULYAR SUBTIPLARINI PROGNOZ QILISHDA MULTIPARAMETRIK MRT VA SUN'IY INTELLEKT MODELLARINING INTEGRATSIYASI .....	282
<b>Sulaymanov Dilshod, Alikariyev Isroiljon</b> ERKIN IQTISODIY HUDUDLAR VA KICHIK SANOAT ZONALARINI TASHKIL ETISH HAMDA TAKOMILLASHTIRISH ("URGUT" ERKIN IQTISODIY ZONASI MISOLIDA) .....	288
<b>Yazdanov Mirjaxon G'ayrat o'g'li</b> IQLIM O'ZGARISHLARINING HUDUD BARQAROR RIVOJLANISHIGA TA'SIRINI BAHOLASH REYTINGI: NAZARIY-USLUBIY YONDASHUV .....	294
<b>Madenova Elmira Nizamatdinovna</b> TIJORAT BANKLARI FOYDASINI SOLIQQA TORTISHNING NAZARIY JIHATLARI .....	300
<b>Turanov M. Sh.</b> BELAZ YUK MASHINALARINING SHARLI O'Q DETALLARDAGI KUCHLANISH KONSENTRATSIYASINING TAHLILI VA MUSTANKAMLIKKA TA'SIRI.....	306
<b>Yusupov Abdulaziz, Pushanov Akbar, Jo'raqulov Ixtiyor, Jaxonov Shoxrux</b> ОЧИСТИТЕЛЬНАЯ СЕКЦИЯ ХЛОПКООЧИСТИТЕЛЬНОГО АГРЕГАТА С НАКЛОННЫМИ КОЛКАМИ НА КОЛКОВЫХ БАРАБАНАХ.....	311
<b>Эргашев Рахимжон, Мавлянов Айбек, Росулов Рузимурод</b> SUV-SUV TIZIMIDA ISSIQLIK ALMASHINISH JARAYONINI JADALLASHTIRISH .....	316
<b>Karabayev Asatilla, Yo'lliyev Shukurali, Abduqayumov Jamoliddin</b>	



HUDUDLARDA AGROTURISTIK SALOHİYATNI BAHOLASH USLUBI .....	323
<b>Qodirov Azizjon, Rustamov Adhamjon, Jumayeva Ozoda</b>	
ROI-WEIGHTED PRIMARY FRAME FILTERING FOR EFFICIENT DEEP VIDEO SURVEILLANCE .....	329
<b>Shohruh Begmatov, Mukhriddin Arabboev, Akhram Nishanov</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MINTAQAVIY RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA SUN'YI INTELLEKTDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI .....	340
<b>Sharipova Munojot Murodullayevna</b>	
ЭКОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ДОХОДОВ И РАСХОДОВ ПО ФИНАНСОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ОРГАНИЗАЦИИ .....	348
<b>Баходиров Азизжон Баходирович, Пашаходжаева Дилдора Джабборхоновна</b>	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	353
<b>Isomuxamedov Akbarjon Bahodir o'g'li</b>	
BUYUK BRITANIYADA BILVOSITA SOLIQLAR TIZIMINING EVOLYUTSIYASI .....	359
<b>Malika Sharipova Maxmudjon qizi</b>	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHNING BESH BOSQICHLI REYTING SHKALASI: METODOLOGIK ASOSLAR VA AMALIY TATBIQ ("O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI" AJ MISOLIDA) .....	367
<b>Fayzullayev Javlonbek Sultonovich</b>	
«ВОЗНИКНОВЕНИЕ И РАЗВИТИЕ КОНЦЕПЦИИ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В МИРОВОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ МЫСЛИ» .....	372
<b>Ким Т.В.</b>	
XUSUSIY UNIVERSITETLARNI IQTISODIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING ICHKI MANBALARI: BALANS TARKIBI VA AKTIVLARNI KAPITALLASHTIRISH TAHLILI .....	378
<b>Rahimov Sardor Uralovich</b>	
ЭКОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ В ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ОРГАНИЗАЦИИ .....	383
<b>Кадыров Арслан, Пашаходжаева Дилдора</b>	
RAQAMLI BANK ISHI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR, INNOVATSIYALAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI (O'ZBEKISTON MISOLIDA).....	388
<b>Shokirov Sardor Inotdullo o'g'li</b>	
O'ZBEKISTONDA MULTIMODAL TRANSPORT-LOGISTIKA INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHGA INVESTITSIYALARNI JALB ETISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	393
<b>Malikova Shoira Baxtiyorovna</b>	
BUXORO VILOYATI OZIQ-OVQAT SANOATINI SIRKULAR IQTISODIYOT ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ...	398
<b>Kudratov Muhammad Rustamovich</b>	
TIBBIY XIZMATLAR BOZORINING TASHKILYI VA INSTITUTSIONAL TUZILMASI .....	402
<b>Abdumalikov Shoxjahan Jaloliddin o'g'li</b>	
BIZNES TAHLILIDA KATTA MA'LUMOTLAR VA SUN'YI INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	407
<b>Umarov Abbos Nuriddin o'g'li</b>	
MINTAQQA SANOATINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI.....	414
<b>Oramov Jahongir, Muxitdinov Xudayar</b>	
POSE-AWARE FACE SELECTION FOR IMPROVING FACE IDENTIFICATION RELIABILITY .....	419
<b>Shohruh Begmatov</b>	
O'ZBEKISTONDA EKSPORT UCHUN MEVA-SABZAVOT YETISHTIRISH VA UNI SUG'URTALASHNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH.....	433
<b>Kalenov K.T.</b>	
INNOVATSION MOLIVAVIY INSTRUMENTLARDAN FOYDALANISH ORQALI SUG'URTA FAOLIYATINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH.....	438
<b>Ergashev Olim Kenjayevich</b>	



CUSTOMS PROCEDURES AND TRADE FACILITATION CHALLENGES IN UZBEKISTAN'S CROSS-BORDER TRADE: A POLICY REVIEW.....	444
<b>Khanifakhon Solikhova</b>	
SOLIQ BOSHQARMALARIDA AGILE MENEJMENT TAMOYILLARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARINING EMPIRIK-STATISTIK TAHLILI .....	449
<b>Sayfiyev Jasur Ravshanovich</b>	
THE DIGITAL GASTRONOME: HOW TECHNOLOGY CONNECTS TOURISTS, RESTAURANTS, AND THE TECH EMPIRE.....	455
<b>Freshta Qayoumy</b>	
ВОЗНИКНОВЕНИЕ И РАЗВИТИЕ КОНЦЕПЦИИ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В МИРОВОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ МЫСЛИ.....	462
<b>Т.В. Ким</b>	
OLIJ TA'LIM MUASSASALARINI STRATEGIK BOSHQARISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING ZAMONAVIJ YONDASHUVLARI: SUN'IY INTELLEKT, BIG DATA, LEARNING ANALYTICS VA DATA- DRIVEN GOVERNANCE.....	468
<b>O'ktamova Durdona Baxtiyor qizi</b>	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR MOLIJAVIJ RESURSLARINING IQTISODIJ MOHIYATI VA NAZARIY ASOSLARI .....	474
<b>Tagriyeva Farida Abdulkarimovna</b>	
O'ZBEKISTONDA MOSH EKSPORTINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH: RCA INDEKSI, QO'SHILGAN QIJMAT VA EKSPORT ZANJIRI TAHLILI.....	479
<b>Islamova Malika Ilyos qizi, Muhammad Ali Hakimovich Saidov</b>	



# O'ZBEKISTONDA MOSH EKSPORTINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH: RCA INDEKSI, QO'SHILGAN QIYMAT VA EKSPORT ZANJIRI TAHLILI

## Islamova Malika Ilyos qizi

Toshkent davlat agrar universiteti  
Agroiqtisodiyot kafedrasida  
Tayanch doktorant (PhD)  
ORCID: 0009-0000-8674-0277  
E-mail: [m.islamova@tdau.uz](mailto:m.islamova@tdau.uz)



## Ilmiy rahbar: Muhammad Ali Hakimovich Saidov

Toshkent davlat agrar universiteti  
Agroiqtisodiyot kafedrasida  
i.f.d., professor  
ORCID: 0000-0003-1996-2878  
E-mail: [m.saidov@tdau.uz](mailto:m.saidov@tdau.uz)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston mosh (*Vigna radiata*) eksportining raqobatbardoshligi uchta metodologik yondashuv — Balassa qiyosiy ustunlik indeksi (RCA), qo'shilgan qiymat tahlili va eksport zanjiri tahlili — asosida chuqur o'rganiladi. Milliy statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda 128 ming tonna mosh eksport qilinib, 102,5 million AQSH dollari tushum olingan; 2023-yilda eksport 28,4 foizga o'sgan. Hisob-kitoblar asosida O'zbekistonning mosh bo'yicha RCA indeksi 1 dan sezilarli yuqori ekanligi aniqlangan, bu esa ushbu mahsulot bo'yicha aniq qiyosiy ustunlikka ega ekanligini bildiradi. Biroq eksport zanjiri tahlili shuni ko'rsatadiki, qo'shilgan qiymatning asosiy qismi xomashyo bosqichida qolib ketmoqda va qayta ishlangan mosh mahsulotlari ulushi esa minimal. Mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha qayta ishlash sanoatini rivojlantirish, eksport bozorlarini diversifikatsiyalash va sertifikatlash tizimini takomillashtirish yo'nalishida amaliy tavsiyalar taqdim etiladi.

**Kalit so'zlar:** mosh eksporti, RCA indeksi, qo'shilgan qiymat, eksport zanjiri, raqobatbardoshlik, bozor diversifikatsiyasi, O'zbekiston.

**Abstract.** This article examines the competitiveness of Uzbekistan's mung bean (*Vigna radiata*) exports through three methodological approaches: Balassa's Revealed Comparative Advantage (RCA) index, value-added analysis, and export chain analysis. According to official data from the National Statistics Committee, 128,000 tonnes of mung beans were exported in 2021, generating USD 102.5 million; exports grew by 28.4% in 2023. Calculations indicate that Uzbekistan's RCA index for mung beans significantly exceeds 1, confirming a clear comparative advantage. However, export chain analysis reveals that the bulk of added value remains at the raw commodity stage, with processed mung bean products accounting for a minimal share. Practical recommendations are proposed for developing the processing industry, diversifying export markets, and improving the certification system.

**Keywords:** mung bean export, RCA index, added value, export chain, competitiveness, market diversification, Uzbekistan.

**Аннотация.** В данной статье конкурентоспособность экспорта маша (*Vigna radiata*) из Узбекистана исследуется на основе трёх методологических подходов: индекса выявленного сравнительного преимущества Баласса (RCA), анализа добавленной стоимости и анализа экспортной цепочки. По официальным данным Национального комитета по статистике, в 2021 году было экспортировано 128 тысяч тонн маша на сумму 102,5 млн долларов США; в 2023 году экспорт вырос на 28,4%. Расчёты показали, что индекс RCA Узбекистана по машу значительно превышает 1, что свидетельствует о наличии явного сравнительного преимущества. Однако анализ экспортной цепочки показывает, что основная часть добавленной стоимости формируется на стадии сырья, тогда как доля переработанных продуктов из маша остаётся минимальной. Предложены практические рекомендации по развитию перерабатывающей промышленности, диверсификации экспортных рынков и совершенствованию системы сертификации.

**Ключевые слова:** экспорт маша, индекс RCA, добавленная стоимость, экспортная цепочка, конкурентоспособность, диверсификация рынков, Узбекистан.

## KIRISH

O'zbekiston dukkakli ekinlar, xususan, mosh yetishtirish va eksport qilishda Markaziy Osiyo mintaqasida yetakchi o'rinni egallaydi. Milliy statistika qo'mitasi [1] ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda mamlakatimizda 360,2 ming tonna mosh yetishtirilgan va bundan 128 ming tonnasi 10 dan ortiq mamlakatga eksport qilingan. Markaziy bank tahlili [2] shuni ko'rsatadiki, 2017–2024-yillarda O'zbekiston eksport qilinadigan tovarlar soni 2 245 tadan 4 359 taga ikki baravar ko'paygan — ushbu o'sishga dukkakli ekinlar va un mahsulotlari muhim hissa qo'shgan.

Biroq mosh eksporti miqdoriy jihatdan o'ssa-da, sifat jihatidan muammo saqlanmoqda. Asosiy cheklovchi omil — xomashyo shaklida eksport ustunligi. Xom mosh 1 kg narxi 0,80–0,87 dollar atrofida bo'lsa, qayta ishlangan mosh mahsulotlari — un, konserva, sog'lom ovqat ingredientlari — xalqaro bozorda kilogrammi 2–5 dollargacha narxda sotiladi. Bu holat O'zbekistonning eksportdan oladigan daromadi imkoniyatlardan ancha past ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarda namoyon bo'ladi: birinchi marta O'zbekiston mosh eksporti uchun RCA indeksi hisoblanadi; eksport zanjirining har bir bo'g'inida qo'shilgan qiymat miqdori baholanadi hamda kompleks tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Tadqiqotning maqsadi:

- RCA indeksi orqali raqobatbardoshlikni miqdoriy baholash;
- eksport zanjiridagi qo'shilgan qiymat taqsimotini tahlil qilish;
- eksport salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish bo'yicha tavsiyalar taqdim etish.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqobatbardoshlik nazariyasida Balassa [3] tomonidan 1965-yilda taklif etilgan qiyosiy ustunlik indeksi (RCA — Revealed Comparative Advantage) eksport raqobatbardoshligini o'lchashda eng keng qo'llaniluvchi ko'rsatkichlardan biridir. Liu B. va Gao J. [4] ta'kidlaganidek,  $RCA > 1$  bo'lganda, mamlakat ushbu mahsulot bo'yicha jahon o'rtacha darajasidan yuqori eksport ulushiga ega, ya'ni qiyosiy ustunlikka ega hisoblanadi.

“Yangi Ipak yo'li” hamkorligi doirasida Xitoy va Markaziy Osiyo o'rtasidagi agrar savdo bo'yicha tadqiqot [5] shuni ko'rsatadiki, Markaziy Osiyo mamlakatlarining agrar mahsulotlar bo'yicha RCA indeksi yuqori, biroq qayta ishlangan mahsulotlar salmog'i past bo'lib qolmoqda. Bu holat O'zbekiston mosh eksporti uchun ham xos.

Porterning [6] “Raqobat ustunliklari” nazariyasiga ko'ra, mamlakat eksport raqobatbardoshligi nafaqat tabiiy resurs imkoniyatlariga, balki qayta ishlash sanoati va institutsional mexanizmlarning rivojlanishiga ham bog'liq. O'zbekiston mosh eksporti tabiiy omillar bo'yicha kuchli, ammo qayta ishlash — Porter tilida “qo'llab-quvvatlovchi sohalar” — bo'yicha zaif. Meva-sabzavot eksporti bo'yicha tadqiqot [7] esa eksport zanjirida post-harvest, ya'ni hosil yig'ib olingandan keyingi bosqichning eng ko'p qo'shilgan qiymat yo'qotishlari joyi ekanligini aniqlagan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda quyidagi uchta asosiy usuldan foydalanildi:

Birinchi usul — Balassa RCA indeksi [3]. Ushbu indeks quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$RCA_{ij} = (X_{ij} / X_i) / (X_{wj} / X_w)$$

Bu yerda:  $X_{ij}$  — i-mamlakat j-mahsulot eksporti;  $X_i$  — i-mamlakatning jami eksporti;  $X_{wj}$  — jahon j-mahsulot eksporti;  $X_w$  — jahon jami eksporti. Agar  $RCA > 1$  bo'lsa, mamlakat ushbu mahsulot bo'yicha qiyosiy ustunlikka ega.

Ikkinchi usul — qo'shilgan qiymat tahlili (Value Chain Analysis). Eksport zanjiridagi har bir bosqichda yaratilgan qo'shilgan qiymat va uning umumiy eksport tushumi ichidagi ulushi hisoblanadi.

Uchinchi usul — eksport zanjiri tahlili (Export Chain Analysis). Fermerdan yakuniy xaridorgacha bo'lgan har bir bo'g'inda narx, xarajat va daromad taqsimoti o'rganiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

1.1. RCA indeksi: O'zbekiston moshining qiyosiy ustunligi

Balassa RCA indeksini hisoblash uchun FAO FAOSTAT [9] ma'lumotlari asosida O'zbekistonning mosh eksporti ( $X_{ij}$ ) va jami qishloq xo'jaligi eksportidagi ulushi, shuningdek, jahon mosh eksportining jahon jami qishloq xo'jaligi eksportidagi ulushi solishtirilib tahlil qilindi. Quyidagi jadvalda RCA indeksini hisoblash uchun asos bo'lgan ko'rsatkichlar keltirilgan.



1-jadval  
O'zbekiston mosh eksporti bo'yicha RCA indeksini hisoblash asosi  
(2021-yil)<sup>1</sup>

Ko'rsatkich	O'zbekiston	Jahon	Manba
Mosh eksporti (ming tonna)	128,0	~4 500,0	[1, 9]
Jami qishloq xo'jaligi eksporti (mln dollar)	~1 200,0	~1 800 000,0	[2, 9]
Mosh eksporti ulushi (% qishloq xo'jaligi dan)	~8,5%	~0,25%	Hisob-kitob
RCA indeksi (taxminiy)	~34,0	1,0 (jahon bazasi)	Hisob-kitob
Talqin	RCA >> 1: KUCHLI ustunlik	—	—

1-jadval ko'rsatishicha, O'zbekistonning mosh bo'yicha taxminiy RCA indeksi 34 ga yaqin — bu jahon o'rtacha darajasidan 34 barobar yuqori eksport ulushini bildiradi. [4]ga ko'ra, RCA > 1 bo'lgan har qanday holat qiyosiy ustunlik sifatida baholanadi, RCA > 10 esa kuchli ixtisoslashuv belgisi hisoblanadi. Demak, O'zbekiston mosh eksporti bo'yicha jahon bozorida juda kuchli qiyosiy ustunlikka ega.

Biroq yuqori RCA indeksi o'z-o'zicha barcha muammolarni hal etmaydi. Tadqiqotlar [5] shuni ko'rsatadiki, Markaziy Osiyo mamlakatlari agrar mahsulotlarda yuqori RCAga ega bo'lsa-da, qo'shilgan qiymat yaratish darajasi past bo'lib qolmoqda. Bu holat O'zbekiston uchun ham xos.

### 1.2. Qo'shilgan qiymat tahlili: xomashyo eksportiga yuqori bog'liqlik

Qo'shilgan qiymat tahlili (Value Added Analysis) mosh eksportining narx tuzilmasini ochib beradi. Xom mosh va qayta ishlangan mosh mahsulotlari narxlarini FAO [9] va xalqaro bozor ma'lumotlari [7] asosida quyidagi jadvalda taqqosladik.

2-jadval  
Mosh mahsulotlarining qayta ishlash darajasiga ko'ra qo'shilgan qiymat tahlili<sup>2</sup>

Mahsulot turi	Qayta ishlash darajasi	1 kg narxi (dollar)	Qo'shilgan qiymat	O'zbek eksportidagi ulushi
Xom mosh (donli)	Minimal (saralash, quritish)	0,80–0,87	Bazaviy	~95%
Mosh uni	O'rta (maydalash)	1,20–1,80	+40–100%	~3%
Mosh asosidagi makaron mahsulotlari	Yuqori (ishlab chiqarish)	2,50–4,00	+200–400%	~1%
Mosh konservasi	Yuqori (qayta ishlash)	3,00–5,00	+300–500%	<1%
Organik sertifikatlangan mosh	Yuqori (sertifikat)	1,50–2,50	+80–200%	<1%

2-jadval tahlili O'zbekiston mosh eksportidagi asosiy iqtisodiy muammoni yaqqol ko'rsatmoqda: eksportning 95 foizi xomashyo shaklida — minimal qo'shilgan qiymat bilan. Agar eksportning hatto 30 foizi mosh uni yoki qayta ishlangan mahsulot sifatida amalga oshirilganida, bir xil hajmdagi eksportdan olinadigan daromad 40–100 foizga ko'payar edi. Bu xomashyo eksportiga yuqori bog'liqlik (ing. commodity trap) O'zbekiston agrar eksportining asosiy iqtisodiy muammolaridan biri hisoblanadi.

### 1.3. Eksport zanjiri tahlili: fermerdan xaridorgacha

Eksport zanjiri tahlili (Export Chain Analysis) mosh mahsulotining fermerdagi dala narxidan yakuniy xorijiy xaridorgacha bo'lgan barcha bosqichlarda narx va qo'shilgan qiymat o'zgarishini ko'rsatadi. O'zbekiston moshi eksport zanjirini o'rganish natijalari quyidagicha:

1 Manba: FAO FAOSTAT [9]; O'zR Milliy statistika qo'mitasi [1, 8]; O'zR Markaziy banki [2]; muallifning hisob-kitoblari.

2 Manba: FAO FAOSTAT [9]; xalqaro bozor tahlili [7]; muallifning hisob-kitoblari.

## 3-jadval

 O'zbekiston mosh eksport zanjiridagi narx va qo'shilgan qiymat taqsimoti (xom mosh, 1 kg)<sup>3</sup>

Zanjir bo'g'ini	Ishtirokchi	Narx (\$/kg)	Foyda (%)	Asosiy cheklovchi omil
1. Ishlab chiqarish	Fermer xo'jaligi	0,25–0,35	~30%	Ishlab chiqarish xarajatlari yuqori
2. Hosilni yig'ish va dastlabki jamlash	Yig'uvchi-vositachi	0,35–0,45	~10%	Vositachilik bosqichlarining ko'pligi
3. Saralash va tozalash	Qayta ishlash punkti	0,45–0,60	~15%	Standartlash yetarli emas
4. Eksportchi omborxonasi	Eksport kompaniyasi	0,60–0,75	~20%	Sertifikatlash xarajatlari
5. Logistika	Transport kompaniyasi	0,75–0,87	~15%	Quruqlik transporti xarajatlari yuqori
6. Xorij xaridori	Import kompaniyasi	0,90–1,20	~10%	Eksport narxining nisbatan past shakllanishi kuzatiladi
JAMI zanjir	—	0,25 → 1,20	100%	Fermerlarga ~28% to'g'ri keladi

3-jadval eng muhim xulosani bermoqda: mosh eksport zanjiridagi 6 ta bo'g'in ichida fermerning o'zi oxirgi xaridorgacha boradigan narxning atigi 28–30 foizini oladi. Qolgan 70 foiz vositachilar, logistika va eksportchilar o'rtasida taqsimlanadi. Bu holat fermerlarning mosh yetishtirishga bo'lgan manfaatdorligini pasaytirmoqda va ekin maydonlarini ko'paytirishga to'sqinlik qilmoqda.

## 1.4. Asosiy eksport bozorlari va diversifikatsiya tahlili

O'zbekiston mosh eksportining asosiy bozorlari tahlili [10, 11] shuni ko'rsatadiki, bozor konsentratsiyasi juda yuqori. Meva-sabzavot eksportining 80 foizi 5 ta davlatga to'g'ri keladi [10], shu jumladan Rossiya (37%), Pokiston (16,7%), Xitoy (12,3%), Qozog'iston (10,3%).

## 4-jadval

 O'zbekiston mosh eksportining asosiy bozorlari va raqobatbardoshlik tahlili<sup>4</sup>

Bozor	Ulushi (%)	Talabning asosi	O'zbek moshining ustunligi	Asosiy cheklovchi omil
Rossiya	~37	Ommaviy iste'mol	Yaqin joylashuv, narx	Fitosanitariya cheklovi, raqobat
Pokiston	~17	Qayta ishlash	Yaqin savdo yo'li	Afg'oniston tranziti xavfi
Xitoy	~12	Sifatli mosh	Katta bozor, o'sish	Sifat talablari, fumigatsiya
Qozog'iston	~10	Qayta eksport	Qulay logistika	Narx raqobati
Hindiston	<5	Katta talab	Yaqin madaniyat, halol	Raqiblar: Myanma, Avstraliya
Yevropa (GSP+)	<2	Organik, sifat	GSP+ imtiyozlari	Sertifikatlash talablari
Yaqin Sharq	<2	Halol oziq-ovqat	O'sish imkoniyati katta	Logistika masofasi

## 1.5. SWOT-tahlil: uch tahlil asosida umumlashtirilgan baho

Yuqorida amalga oshirilgan RCA indeksi, qo'shilgan qiymat va eksport zanjiri tahlillari asosida O'zbekiston mosh eksportining SWOT-tahlili tuzildi. Ushbu yondashuv nafaqat mavjud holatni, balki istiqbolni ham kompleks baholash imkonini beradi.

<sup>3</sup> Manba: Muallifning ekspert baholash va manba tahlili asosida tuzilgan.

<sup>4</sup> Manba: Gazeta.uz [10]; Spot.uz [11]; muallifning tahlili.



5-jadval  
O'zbekiston mosh eksportining SWOT-tahlili (RCA, qo'shilgan qiymat va eksport zanjiri asosida)<sup>5</sup>

KUCHLI TOMONLAR (S)	ZAIF JOYLAR (W)
+ RCA ~34 — kuchli qiyosiy ustunlik (jahon o'rtachasidan 34 baravar) + 2021: 128 ming tonna, 102,5 mln dollar tushum + 2023: eksport hajmi 28,4 foizga o'sgan + 2025 (yanvar–may): 29,8 ming t., 25,8 mln dollar + Iqlim, tuproq sharoitining qulayligi + Arzon ishchi kuchi va yetishtirish tajribasi	– 95% xom ashyo shaklida eksport (qayta ishlangan minimal) – Fermer eksport narxining 28–30% ini oladi – 5 davlatga 80% eksport (bozor konsentratsiyasi) – 1 kg narxi past: 0,80–0,87 dollar – Ko'p vositachilik: qo'shilgan qiymat yo'qoladi – Sertifikatlash va brendlash yetarli emas
IMKONIYATLAR (O)	TAHDIDLAR (T)
+ 2025 yan-fev: Xitoy 9 303 t., Niderlandiya 352 t. — yangi bozorlar + GSP+ — Yevropa bozoriga imtiyozli kirish (2027 yilgacha) + Pokiston bilan 1 mlrd dollar savdo rejasi + Qayta ishlangan mosh: 2–5 dollar/kg (yuksak potensial) + Yaqin Sharq halol bozori (BAA, Saudiya Arabistoni) + «Yangi Ipak yo'li» logistika imkoniyatlari	– Rossiya bozorida fitosanitariya talablarining kuchayishi (sharq mevaxo'ri) – Raqiblar: Hindiston, Myanma, Avstraliya (nisbatan past narxli mosh) – Pokiston tranziti (Afg'oniston orqali tranzit bilan bog'liq logistika tavakkalchiligi) – Jahon mosh narxlarining o'zgaruvchanligi – Iqlim o'zgarishi: suv tanqisligi xavfi – Xitoy bozorida talab hajmining o'zgaruvchanligi (katta hajm, past narx)

Uchta metodologik yondashuv asosida olib borilgan tadqiqot O'zbekiston mosh eksportining ikki qarama-qarshi tendensiyasini yaqqol ko'rsatdi.

Birinchidan, RCA indeksi (~34) O'zbekistonning mosh bo'yicha jahon bozorida juda kuchli qiyosiy ustunlikka ega ekanligini tasdiqlaydi. Bu ko'rsatkich rivojlanayotgan mamlakatlar uchun kamdan-kam uchraydigan yuqori daraja [4]. Demak, tabiiy resurs bazasi, iqlim sharoiti va yetishtirish tajribasi nuqtai nazaridan O'zbekiston mosh bo'yicha jahon bozorida kuchli mavqega ega.

Ikkinchidan, qo'shilgan qiymat tahlili shuni ko'rsatadiki, bu ustunlikdan to'liq foydalanilmayapti. Eksportning 95 foizi xom mosh shaklida amalga oshirilishi va fermerning eksport narxining atigi 28–30 foizini olishi [6, 7] Porterning ta'kidlagan “qo'llab-quvvatlovchi sohalar” — qayta ishlash sanoatining yetarli rivojlanmaganligidan dalolat beradi.

Uchinchidan, eksport zanjirida ko'p vositachilik nafaqat fermer daromadining nisbatan cheklangan shakllanishiga olib kelmoqda, balki O'zbekiston moshining xalqaro bozorlardagi milliy brend taniluvchanligini cheklamoqda. Xorijiy xaridorlar O'zbekiston moshini emas, balki vositachi kompaniyalar brendini ko'proq biladi.

Bozor diversifikatsiyasi nuqtai nazaridan, GSP+ tizimi doirasida Yevropa bozori va Yaqin Sharq halol bozori katta imkoniyat bo'lsa ham, ulardan foydalanish ulushi hali minimal [2]. Bu bozorlar yuqori narx, biroq yuqori sertifikat talablarini ham bildiradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot O'zbekiston mosh eksportining yuqori qiyosiy ustunlikka ega bo'lsa-da, bu ustunlikdan to'liq foydalanilmayotganligini ko'rsatdi. Quyidagi asosiy xulosalar chiqarildi.

RCA indeksi (~34) juda yuqori: O'zbekiston mosh bo'yicha jahon bozorida kuchli qiyosiy ustunlikka ega — bu tabiiy resurs bazasi va iqlim sharoitining qulayligini tasdiqlaydi.

Xomashyo eksportiga yuqori bog'liqlik asosiy cheklovchi omil: eksportning 95% xom mosh; qayta ishlangan mahsulotlar ulushi minimal. 1 kg narxi past (0,80–0,87 \$), holbuki qayta ishlangan mosh 2–5 \$ ga sotilishi mumkin.

Eksport zanjiri samaradorligi cheklangan: fermer eksport narxining faqat 28–30% ini oladi; ko'p vositachilik qo'shilgan qiymatning katta qismi zanjir bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanmoqda.

Bozor konsentratsiyasi xavf omili: 5 ta davlatga 80% eksport; Rossiyaning fitosanitariya cheklovlari va Pokiston tranzit risklari daromad barqarorligiga barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

– Qayta ishlash sanoatini rivojlantirish: mosh uni, konserva va sog'lom oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalariga soliq imtiyozlari va investitsiya subsidiyalari joriy etish; qayta ishlangan mosh eksportiga qo'shimcha rag'bat mexanizmlarini yaratish;

– Zanjirni qisqartirish: fermerlar kooperativlari orqali vositachilik bosqichlarini qisqartirish va fermerlarga eksport daromadining 45–50% ga yetishini ta'minlash;

5 Manba: Muallifning RCA, qo'shilgan qiymat va eksport zanjiri tahlillari asosida; O'ZR Milliy statistika q'mitasi [1, 8]; Gazeta.uz [10]; Spot.uz [11].

– Bozor diversifikatsiyasi: GSP+ doirasida Yevropa bozori, Yaqin Sharq (BAA, Saudiya Arabistoni) halol bozori va Hindiston bozorlarini o'zlashtirishga maqsadli davlat dasturlarini joriy etish;

– Sertifikatlash va brendlash: "O'zbek moshi" milliy brendini yaratish, organik va halol sertifikatlarni olishda fermerlarga moliyaviy ko'mak ko'rsatish;

– Logistika infratuzilmasi: Pokiston bozori uchun Termiz–Mozori Sharif koridorini, Xitoy bozori uchun "Yangi Ipak yo'li" imkoniyatlarini to'liq ishga solish.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi. 2021-yilda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot. — Toshkent, 2022. — URL: [agro.uz/11-0012](http://agro.uz/11-0012) (murojaat: 2024-oktyabr).
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. O'zbekiston eksporti yanada diversifikatsiyalanyapti: tahliliy hisobot. — Toshkent, 2025. — URL: [gazeta.uz/oz/2025/11/05/export](http://gazeta.uz/oz/2025/11/05/export) (murojaat: 2025-noyabr).
3. Balassa B. Trade Liberalisation and Revealed Comparative Advantage // *The Manchester School*. — 1965. — Vol. 33. — P. 99–123.
4. Liu B., Gao J. Normality in the Distribution of Revealed Comparative Advantage Index for International Trade and Economic Complexity // *Applied Sciences*. — 2022. — Vol. 12 (3). — P. 1125. <https://doi.org/10.3390/app12031125>
5. Shahzad U., Xiaoyin H. Importance of Trade Integration and Trade Complementarity Inflow on the Relationship between China and Europe and Central Asia // *Journal of Stock and Forex Trading*. — 2023. — Vol. 10. — P. 232. DOI: 10.4172/2168-9458.23.10.232
6. Porter M. *The Competitive Advantage of Nations*. — New York: Free Press, 1990. — 855 p.
7. Jumayeva Z.B. Buxoro viloyati misolida meva-sabzavot eksport salohiyati va marketing mexanizmlari // *Interjournal. uz*. — 2025. — URL: [interjournal.uz/index.php/journals/article/download/395/375/990](http://interjournal.uz/index.php/journals/article/download/395/375/990)
8. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston 5 oyda 25,8 mln dollarlik mosh eksport qilgan: press-reliz. — Toshkent, 2025. — URL: [stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/62369](http://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/62369)
9. Food and Agriculture Organization (FAO). FAOSTAT Statistical Database. — Rome: FAO, 2024. — URL: [fao.org/faostat](http://fao.org/faostat) (murojaat: 2024-noyabr).
10. Gazeta.uz. Meva-sabzavotlarning eksport narxini tartibga solish: nega bunday qilinyapti? — 2024-yil 7-mart. — URL: [kun.uz/news/2024/03/07/meva-sabzavotlarning-eksport-narxini-tartibga-solish-nega-bunday-qilinyapti](http://kun.uz/news/2024/03/07/meva-sabzavotlarning-eksport-narxini-tartibga-solish-nega-bunday-qilinyapti)
11. Spot.uz. O'zbekiston va Pokiston o'zaro tovar ayirboshlash hajmini 1 mlrdga yetkazmoqchi. — 2022-yil 27-dekabr. — URL: [spot.uz/oz/2022/12/27/uzb-pakistan](http://spot.uz/oz/2022/12/27/uzb-pakistan)

# **muhandislik**

# **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

## 2026. № 6

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)